

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI

BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



Ro'yxatga olindi: № BD 60211500-1.15

IMPROVIZATSIYA

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60211500 - Cholg'u ijrochiligi (estrada cholg'ulari)

Fan/modul kodi IMP1204	O'quv yili 2023 – 2024	Semestr 7-8	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lil tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lil (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	IMPROVIZATSIYA	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Bakalavriat ta'lil bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur - bakalavriat ta'lim yo'nališining Estrada cholg'ulari ixtisosligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur davlat ta'lil standartlariga binoan san'at sohasida bakalavrlar tayyorlash o'quv rejalarasi asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalilanildi. "Improvizatsiya" fani ixtisoslik fani hisoblanadi. Ijro qilish jarayonida kompozitor tomonidan yaratilgan asarni puxta o'rganish va tahlil qilish, klassik va zamonaviy asarlarni erkin improvizatsiya uslubida ijro etish fanning ijodiy jarayonlar bilan bog'liqligini belgilaydi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi kasbiy va ixtisoslik fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Improvizatsiya fanining milliy musiqiy estrada san'ati ijrochiliginin professional darajada o'rganish borasidagi o'rni muhim. U estrada xonandalari va ijrochilarini bir qator yuqori malakalarini rivojlantirish, ijod qilish ko'nikmalarini o'rgatish, ijro mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanning maqsadi - ma'lum bir kuy yoki uning kichik parchasini erkin rivojlantirish, barcha stilistik yo'nališlarda ijro qilish ko'nikmalarini orttirishi, cholg'ularda erkin improvizatsiyasi, kuylarning shaklan, garmonik tuzilishi to'g'risida tasavvur qilish, tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lish. Improvizatsiya fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalarning turli yo'nališlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishdan iborat. Berilgan kuyni sifrovka (akkordlarni xarf-raqam belgilash usuli) bo'yicha ijro qilish; berilgan ma'lum bir kuyni zamonaviy estrada uslublarida erkin rivojlantirib, cholg'u ijrosida improvizatsiya ko'nikmalarini namoyon qilish; jaz improvizatsiyasi tarixini taxlil qilib ushbu yo'nališda ham erkin improvizatsiya ko'nikmalarini namoyon qilish			

II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

VII Semestr.

1 - mavzu. Improvizatsiya fanining dolzarbligi.

Improvizatsiya fani estrada ijrochiligi yo'nalishida ta'lif olayatgan talabalar uchun to'rtinchi bosqichda amaliy mashg'ulot tarzida o'qitiladi.

Improvizatsiya fanining maqsadi ma'lum bir kuy yoki uning kichik parchasini erkin rivojlantirib, barcha yo'nalishlarda ijod qilish qo'nikmalarini rivojlantirish, cholg'ularda erkin garmonik va melodik improvizatsiya malakalarini mustaqil ijodda tadbiq etishdan iborat.

2- mavzu. Notadan ijro mahorati.

Notadan ijro mahoratini o'stirish. Talabalarda mustaqil ravishda mashg'ulotlar olib borish ko'nikmalarini o'rgatish, ijro dasturini shakllantirishga yordam berish va o'zlashtirilgan - notalarni varoqdan ravon o'qish, nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Umumiylusiqiy-nazariy bilim doirasini yanada kengayish. Jamoaviy ijrochilikka xos bo'lgan 2-3 ta mashqlar, 4-5 ta har xil xarakter uslubidagi asarlarni dastlab notadan ijro etish. Talabaning imkoniyati, musiqiy qobiliyati, musiqiy bilim doirasiga tayangan holda murakkab ijro dasturini belgilash.

3-mavzu. Harf tizimini o'zlashtirish.

Estrada yo'nalishida ijro qiladigan ijrochilar uchun harf tizimi ahamiyatini tushuntirish; improvizatsiya uchun harf tizimini qulayliklarini o'rganish; harf tizimining ijro yo'llarini o'rganish; harf tizimini amalda qo'llash.

4-mavzu. Alteratsiya belgilari.

Akkord tovushlarini yarim ton ko'tarish yoki tushirish belgilari. Jaz garmoniyasida. Jazz improvizatsiyasida alteratsiya texnikasining amaliy ahamiyati

5-mavzu. Gammalar.

Gammalar ijrosi orqali improvizatsiya uchun ishlataladigan tovushqatorni to'g'ri aniqlash; gammalardagi asosiy pog'onalardan improvizatsiya vaqtida foydalanish; Arpedjio va dominantseptakkordlar ijrosi orqali barmoq texnikasini rivojlantirish. Xalq ladlari va xar bir uslubga mos ladlarni o'zlashtirish.

Oraliq nazorat.

Asarni mohiyatini tushunib, ma'lum bir berilgan lad va garmoniya asosida mustaqil improvizatsiya ijro etib berish.

6-mavzu. Horijiy tajriba bilan tanishish.

Horij estradasi asarlarini tinglab taxlil qilish, dunyoga mashxur ijro uslubini o'rganish.

7-mavzu. Melodik yo'nalishlar.

Jaz improvizatsiyasidaakkordlarning roli. Yordamchi va o'tkinchi tovushlar. Diatonik va xromatik yordamchi tovushlar.

8-mavzu. Ijro uslublari.

Estada san'ati ijro uslublarining oziga xosligi; ijro uslublarini taxlil qilish; xar bir ijro uslubining temp, o'lchov, usul, shtrixlarini o'rganish.

9-mavzu. Estrada ijrochilarida mustaqil improvizatsiya ijro etish qobiliyatini rivojlantirish.

Har bir ijrochida mustaqil improvizatsiya qila olish qobiliyatini rivojlantirish; improvizatsiya orqali ritm, garmoniya, uslublarni xis etish va moslasish, improvizatsiya orqali ichki xis tuyg'ularni amalda ko'rsatish.

Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1.Jaz standartlaridan 2 ta ixtiyoriy asarga lad va garmoniya asosida berilgan mavzuga yangi improvizatsiya ijro etish.

2. Ansambl jo'rligida ijro mustaqil improvizatsiya ijro etish.

VIII semester.

1-mavzu. Sving uslubining xususiyatlarini o'rganish va uning jaz rivojlanishiga ta'siri.

Sving uslubi xaqida tushunchalarga ega bolish, swingning o'ziga hos xususiyatlarini o'zlashtirish. Svingdagi metr, o'lchov, kuchli va kuchsiz xissalarni ajratish, improvizatsiya jarayonida ishlatiladigan pog'onalarni aniqlash.

2-mavzu. Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv.

Estrada ijrochiligida zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishish, yo'nalishlarni taxlil qilish, zamonaviy guruhlarda Estrada cholg'ularining o'tni.

3-mavzu.Lad. Diatonik tizimlari.

Qadimgi xalq ladtari, jaz musiqasida oziga xos bolgan tovushqatorlar, blyuz gammasi, major va minor tuzulmalarini o'zlashtirish.

4-mavzu. Jaz-Ballada

Jazz balladasi belanchak teksturasining tuzilishining eng umumi qoidalariiga amal qiladi, ammo ijroning sekin sur'ati ushbu qoidalarga ma'lum tuzatishlar kiritadi.

Jaz-Ballada-blyuz bilan birga, jazz balladasi jaz ijrochisida improvizatsiya mahoratini rivojlantirish uchun eng foydali janrlardan biridir.

5-mavzu. Bossa-nova. Ritmik va stilistik xususiyatlar.

O'ziga xos uslub nuqtai nazaridan, bossa nova odatda braziliyalik shahar samba ritmi va amerikalik jaz uyg'unligini (ya'ni, kengaytirilgan xromatik tonallik) birlashtirgan janr sifatida qaraladi. Bossa nova ritmi melodiyada emas balki akkomponimentda namoyon bo'ladi.

Oraliq nazorat.

Asarni mohiyatini tushunib, ma'lum bir berilgan lad va garmoniya asosida mustaqil improvizatsiya ijro etib berish.

6- mavzu Bibop. Ritmik va stilistik xususiyatlar.

Bebop janrinining o'ziga xosligi - melodiya bilan emas, balki uyg'unlikni ijro etishga asoslangan tezkor templar va murakkab improvizatsiyalar bilan ajralib turadi. Bibop bosqichi jazda ohangga asoslangan raqs musiqasidan kamroq mashhur, ko'proq ritmiga asoslangan "musiqachi musiqasi" ga e'tiborni sezilarli darajada o'zgartirdi. Ijrochiga modal zamonaviy jaz tuzilmalarini o'zlashtirish uchun bebopni o'rganish tavsiya etiladi.

7-mavzu. Jaz yo'nalishining o'ziga hos garmoniya va melodiyalari.

Jaz musiqasi tarkibidagi yo'nalishlarning o'ziga xos lad tizimlari. Garmoniya va melodiya tuzulmalari.

8-mavzu. Improvizatsiya texnikasi masalalari.

Ijrochida mustaqil improvizatsiya ijro etgan vaqtida, berilgan jumlaning melodik va xarakter xususiyatlarini saqlab qolgan holda yangi bosqichga olib chiqish, qayta sayqallash, mavzuni yangi ko'rinishda tinglovchiga yetkizish.

9-mavzu. Interaktiv pedagogik texnologiyalar, uslublardan foydalanish mahorati.

Interaktiv pedagogik texnologiyalar, uslublardan foydalanish mahorati, zamonaviy musiqiy muharrir dasturlardan foydalana olish, zamonaviy ijro uslublarini milliy musiqa bilan sintez qila olish.

10-mavzu. Konsert ijrochiligiga tayyorgarlik.

Ijrochida sahna madaniyati, konsert ijrochiligi kabi qobiliyatlarni rivojlantirish, konsert ijro vaqtida musiqiy asarni sifatli tarzda tinglovchiga yetkizib berish ko'nikmalarini shakllantirish.

Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan mashq-topshiriqlarni baholash. Ijro dasturini topshirish:

1.Jaz standartlaridan 2 ta ixtiyoriy asarga lad va garmoniya asosida berilgan mavzuga yangi improvizatsiya ijro etish.

2. Ansambl jo'rligida ijro mustaqil improvizatsiya ijro etish.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlari

1. Mavzu: Improvizatsiya fanining vujudga kelishi va dolzarbliji.
2. Mavzu: Jaz yo'nalishlari.
3. Mavzu: O'zbek va jahon kompazitorlari ijodini o'rganish.
4. Mavzu: Estrada jaz uslublarini o'rganish.
5. Mavzu: Estrada jaz uslublarini taxlil qilish.
6. Mavzu: Bibop. Ritmik va stilistik xususiyatlar.
7. Mavzu: Bossa-nova. Ritmik va stilistik xususiyatlar
8. Mavzu: Turli zamonaviy yo'nalishlar bilan tanishuv.
9. Mavzu : Harf sistemasiда ijro etish (bukvennaya sistema)
10. Mavzu: Jaz-Ballada
11. Mavzu: Tinglab taxlil qilish qobiliyatini shakllantirish.
12. Mavzu: Sving, blyuz, ballada, rok, pop kabi uslublarda ijro etishni o'rganish.
13. Mavzu Lad. Diatonik tizimlari.
14. Mavzu: Jaz sekvensiyalari
15. Mavzu: Ritm rivojlanishi
16. Mavzu: Melodik rivojlanishi
17. Mavzu: Jaz garmoniya va melodiyalari.
18. Mavzu: Jaz melodiya va ritm
19. Mavzu: Blyuz garmonizasiyasi.
20. Mavzu: duet, trio, kvartet va h.k. tarkibdagi ansamblarda mohirona ijro etish.

<p>3.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari /Shakllangan kompetensiyalari</p> <p><i>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:</i></p> <p>Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lif standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - estrada san'atining har xil uslub va usullarini; - zamonaviy jaz va estradaga xos bo'lgan oqimlar (yo'nalishlar) - jaz strukturasiining improvizatsiyasini amaliyotda qo'llashni; - jaz musiqasining usul, garmonik va lad asoslarini; - tovushning akustik tuzilishini <i>bilishi kerak</i>; - estrada sahnasida ijro etish mahorati; - yangi o'r ganuvchi havaskorlar bilan ishslash; - jaz improvizatsiya asarlari ijrosi <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>: - o'qitish usullarini, har xil uslubiyatlarni ko'rib chiqib tahlil qilish zamonaviy tovush apparatlaridan foydalanish (mikrofon, sintizator, mini-disk va x.k.); - melodik va garmonik uslubda improvizatsiya qilish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
<p>4.</p> <p>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - interfaol keys-stadilar; - treninglar; - bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim metodi; - Ven diagrammasi metodi; - individual ijro yo'llari; - Ustoz-shogirt an'analari - Klaster tizimi
<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha dasturni ijro etib ko'rsatish.</p>

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Xoliqov G'. «Improvizatsiya asoslari». O'quv qo'llanma. T., 2004.
2. Norxo'jaev N. «Improvizatsiya». O'quv qo'llanma. T., 2005.
3. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M.,1988.
4. Molotkov. V«Jazovaya improvizatsiya na shestistrunnay gitare».M.,1988
5. Markin Yuriy. «Shkola jazovoy improvizatsii».M.,2008
6. Джейми Аберсольд «Искусство музыкальной импровизации».2010
7. Oseychuk A. «Shkola jazovoy improvizatsii».M.1997
8. Enmark Salixov "Dajoviy improvizatsiya dlya fortepiano" Toshkent 2005.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Kollier James. «Stanovlenie jaza»
2. Konen V. «Rojdenie jaza»
3. Erokhin. « Jazovie i estradnie kompozitsii dlya fortepiano.v 1-7,M.1988
4. Dalpoza P. «Jazz Piano Legends Partitures Collections»
5. Jamey Aebersold, Corey Christiansen - Vol.1 “How To Play Jazz - For Guitar”
6. Chugunov Y. «15 Jazz ballads»M.2002
7. Oscar Peterson «Trios Artist Transcriptions »— N.Y 2005
8. «557 american jazz standarts, swing to bop».NY.,2004.
9. Belyi E. «Leksika jaza,osnovi jazovogo ispolnitelstva na trube»
10. Chugunov Y.«Garmoniya v jaze»,1988.

Axborot manbalari

1. <http://www.youtube.com>
2. www.kultura.uz
3. <http://portasound.ru/music-search/musika-olami>
4. <http://www.zivonet.uz>
5. <http://www.edu.uz>
6. <http://konservatoriya.uz>
7. <http://www.lex.uz>
8. www.gov.uz
9. www.uza.uz

7.	Fan dasturi Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassislilari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil <u>30</u> avgustdagি <u>1-</u> sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Asminkina O.P. O'zDK huzuridagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi katta o'qituvchisi. Olimov M.N. O'zDK huzuridagi MESI "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	Taqrizchi: Nazarov X.I. – O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Kompozitorlik va aranjirovka" kafedrasi dotsenti.